

6. [Microsoft teams up with OpenAI to exclusively license GPT-3 language model](https://blogs.microsoft.com/blog/2020/09/22/microsoft-teams-up-with-openai-to-exclusively-license-gpt-3-language-model) [Архивная копия](#) от 21 октября 2020 на [Wayback Machine](#) (англ.).  
<https://blogs.microsoft.com/blog/2020/09/22/microsoft-teams-up-with-openai-to-exclusively-license-gpt-3-language-model/>.

7. Senad Bećirović, Amna Brdarević-Cheljo, Xaris Delić. Chet tillarini o'rganishda raqamli texnologiyalardan foydalanish | SpringerLink. 27.09.2021.

8. Hayo Reinders. Ta'limni qo'llab-quvvatlash uchun texnologiyadan foydalanish. Kembrij universiteti matbuoti va baholash. 28.07.2022

## **O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHDA KOLLABORATIV TA'LIM TEXNOLOGIYASI**

**Abdulla Aliqulov**

TDPU

### **Annotatsiya**

Ushbu maqola zamonaviy ta'limda kollobarativ texnologiyalarni qo'llashda hamkorlikda o'qitishning mazmuni, kollobarativ texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llashning ahamiyati va kollobarativ metodlarni qo'llash masalalariga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** loyihalash, hamkorlik, texnologiya, dastur, ta'lim, professional, ta'lim sifati, metod, kollobarativ ta'lim

So'nggi paytlarda zamonaviy ta'limda o'qitish va tarbiyalashda yangi yondashuvlarni izlashda bo'yicha olimlar turli pedagogik strategiyalarni o'rganishga xarakat qilmoqdalar. Bu tadqiqot makonini kengaytiradi va shu tariqa, bir tomondan, ma'lum strategiya kontekstida ta'lim turlari va texnologiyalarini ko'rib chiqish, ikkinchi tomondan, o'qitish va tarbiyalashning yangi strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Albatta, bunda mashg'ulot shakllarini tanlashda mavzuning mohiyatiga alohida e'tibor beriladi. Barcha shakldagi mashg'ulot jarayonlarida ta'lim oluvchilar xulqi, madaniyatini shakllantirish samaradorligini oshirish uchun savol-javob qilish,

munozarali vaziyat paydo qilish, mustaqil ishlash, turli o‘yinlardan foydalanish kabi usullardan foydalanish muhimdir.

Markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan o‘quv jarayonini tashkil etishda kollaborativ ta’lim texnologiyasi qo‘llash yaxshi samara beradi [2].

Hamkorlik asosida o‘rganish strategiyalari: kollaborativ ta’lim, kollaborativ o‘rganish, bilimlarni boshqarish, mustaqil o‘rganish, tarmoqlar orqali o‘rganish.

Ushbu yondashuv doirasida kollaborativ o‘rganish hamkorlikdagi o‘rganish strategiyasini anglatadi. Ingliz tilidan tarjima qilinganda hamkorlik "umumiy", "birlashgan", "qo‘shma" degan ma’noni anglatadi.

Pedagogika fanida “hamkorlik” atamasi “hamkorlik”, “sheriklik” degan ma’noni anglatadi. Bu umumiy maqsadlarga erishish uchun odamlarning birgalikdagi faoliyati jarayonini anglatadi, bunda bilim almashish, o‘rganish va kelishuvga erishish.

"Kollaborativ o‘rganish" (hamkorlikda o‘rganish) ta’rifi muammoni hal qilish, topshiriqni bajarish yoki mahsulot yaratish uchun o‘quvchilarning jamoaviy ishini tashkil qilish imkonini beradigan o‘rganish strategiyasi sifatida tushuniladi.

N.V.Pavelyevaning fikricha, “kollaborativ (qo‘shma) ta’lim o‘quvchilar o‘rtasidagi yoki o‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasidagi yaqin hamkorlik asosida qurilgan yondashuvdir. Jarayon ishtirokchilari ma’lumotni faol birgalikda qidirish, muhokama qilish va ma’nolarni tushunish orqali bilimga ega bo‘ladilar [4].

Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish ta’lim oluvchilarning umumiy ta’lim maqsadiga erishishga qaratilgan birgalikdagi faoliyati amalga oshiriladigan sinfdagi guruh ishlarini o‘z ichiga oladi [1].

Ta’lim oluvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy faoliyatda, ma’lum maqsadga erishmoq uchun o‘qituvchi ta’lim oluvchilarni hamkorlik jarayoniga tortishi zarur. O‘qituvchi qanday qilib ta’lim oluvchilarni o‘zi bilan hamkorlik qilishga jalb eta olishi xususida qisqacha ma’lumot berib o‘tamiz:

- hamkorlik vujudga kelishi uchun jamoada tashkil etilishi lozim bo‘lgan faoliyat ta’lim oluvchilarga qiziqarli bo‘lishi, ularning yosh xususiyatlari va qiziqishlariga mos kelishi lozim;

- ta'lim oluvchilarni biror ishga jalb qilar ekan, o'qituvchi ularga pedagogik va psixologik jihatdan to'g'ri vazifa qo'yishi, yo'l-yo'riq ko'rsatishi shart;
- ta'lim oluvchilar topshiriqni amalga oshirishga kirishganlarida o'qituvchi bir vaqtning o'zida ham ishtirokchi, ham maslahatchi vazifasini bajaradi.

Hozirgi kunda qo'llanilayotgan o'qitish texnologiyalarining eng samarali usullaridan biri – bu hamkorlikda o'qitish texnologiyasidir [3].

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining diqqat markazi asosida: **o'qituvchi – ta'lim oluvchi va ta'lim oluvchi – ta'lim oluvchi** bilan hamkorlikda davlat ta'lim standartlari (DTS), o'quv dasturi, o'quv rejasida o'zlashtirilishi kerak bo'lgan mavzularni bir-biriga ko'mak bergan holda bajaradilar. Ayniksa, berilgan o'quv materialini ta'lim oluvchilar tomonidan qayta ishlanib, o'zlashtiriladi. Har bir ta'lim oluvchida mustaqil ishlash, mustaqil fikr yuritish, mavzuni loyihalash bilan bilish faolligi oshib boradi. Ta'lim oluvchilar bir-birlari bilan mavzu yuzasidan munozarada bo'lib, o'quv baxsini yuritadi. Eng muhimi ta'lim oluvchi mavzuni tahlil qilishi davomida bekorchilikka barham beradi va o'quv jarayonining tinglovchisi emas, balki ishtirokchisiga aylanadi. Mavzuning yechimi hamkorlikda hal bo'ladi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining bosh g'oyasi – o'quv topshiriqlarini nafakat birgalikda bajarish, balki o'qituvchi – ta'lim oluvchi, ta'lim oluvchi – ta'lim oluvchi bilan hamkorlikda ish bajarib, ta'lim oluvchining intellektual salohiyati shakllanib borib, yaratuvchanlik, kashfiyotchilik qobiliyatlari rivojlanishiga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda mashg'ulot jarayonida hamkorlikda o'qitish texnologiyasi qo'llanilganda har bir ta'lim oluvchining aqliy mehnat asosida fikr yuritishida shaxs sifatida bir-biri bilan ongli munosabatni tarbiyalaydi. Ularning kuchi va qobiliyatiga ishonchi ortadi. Har bir ta'lim oluvchining muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini tushunadi. Bu esa ta'lim oluvchilarning o'quv materialini yanada mukammal o'rganishlariga, alohida puxta ilmiy izlanishlariga sabab bo'ladi. Ta'lim oluvchilar bir-birlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam uyushtirishib, mustaqil fikrlaydilar va o'z fikrlarini bema'lol ifodalaydilar.

## **Bibliografik ro‘yxat**

1. Строкова Т.А. Индивидуальная стратегия обучения: сущность и технология разработки // Образование и наука. 2005. № 4. С. 17-26.
2. Тарханова И.Ю. Интерактивные стратегии организации образовательного процесса в вузе: учебное пособие. Ярославль: Изд-во ЯГПУ, 2012. 67 с.
3. Образовательные стратегии и технологии обучения при реализации компетентностного подхода в педагогическом образовании с учётом гуманитарных технологий: Методические рекомендации. СПб.: Изд-во РГПУ им. А.И. Герцена, 2008. 108 с.
4. Павельева Н.В. Коллаборативное обучение как модель эффективной реализации образовательного процесса // Образование. Карьера. Общество. Кемерово, 2010. № 3 (29). С. 30–37.
5. Фрайсин Ж. Обучение в цифровых сетях: кооперативное обучение, коллаборативное обучение и педагогические инновации // Непрерывное образование XXI век. Петрозаводск: ПетрГУ, 2016. № 4 (16). С. 1–18.

## **RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA TA'LIMDA PEDAGOGIK VA INNOVATSION YONDASHUVLAR**

**Salixova Muxayo Shakirovna katta o‘qituvchi**

**Nabieva Ruxshona Alisher qizi talaba**

**Ummatova Nilufar Baxodir qizi talaba**

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari  
universiteti**

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Oliy o‘quv yurtlari, talabalarni zamonaviy bilim va malakalarni o‘rgatish, shuningdek xorijiy tillarni o‘rganish va dunyoqarashi fikrlashlari uchun ideal muhitlar sifatida taniladi. Shu bilan birga, bu texnologiyalar